

ISHQIY IZTIROB VA ILOHIY GO'ZALLIK

T.Toshboltayeva

Qo'qonDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

Munira Hakimova

Qo'qon DU Gumanitar fanlar va tillar fakulteti,
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.21232733>

Annotatsiya: Maqolada Kamiy g'azalida yor husni, oshiq qalbining ruhiy kechinmalari va ishq hamda hijron motivlari tahlil qilinadi. Shuningdek, g'azalda inson qalbi va muhabbatning teran ma'nosi ham ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Kamiy, oshiq qalbi, hijron, yor tavsifi, ishq, ilohiy go'zallik, ruhiy kamolot, ilm va hunar, ishq falsafasi.

Аннотация: В статье анализируется красота любви, духовные переживания сердца влюбленного, а также мотивы любви и эмиграции в газели Ками. Газель также раскрывает глубокий смысл человеческого сердца и любви.

Ключевые слова: Ками, сердце влюбленного, эмиграция, описание любви, любовь, божественная красота, духовное совершенство, наука и ремесло, философия любви

Abstract: This article analyzes the beauty of love, the spiritual experiences of the lover's heart, and the motifs of love and emigration in Kami's ghazal. The ghazal also reveals the profound meaning of the human heart and love.

Keywords: Kami, lover's heart, emigration, description of love, love, divine beauty, spiritual perfection, science and craft, philosophy of love

Karimbek Sharifbek o'g'li – Kamiy – milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri. 1890-yillardan shoir sifatida tanilgan. Kamiy mumtoz she'riyatning g'azal, murabba', muxammas, musaddas, ruboiy, qit'a, fard janrlarida qalam tebratdi. Ijtimoiy-falsafiy ruhdagi manzumalar yozdi. Adabiy-ijtimoiy hayotdagi eng muhim voqealar sanasini o'zida darj etgan tarixlar yaratdi. Shoirdan 6000 misraga yaqinroq adabiy meros qolga

Shoir o'zining "Temir yo'l xususida", "Dilki millat g'amida qon o'ldi...", "Soldi beilmlik xatolarg'a" kabi qator she'rlarida xalqni ma'rifatli bo'lishga da'vat etgan.

Shoirning jo'shqin ishqiy g'azallari, zaharxanda va dadil ijtimoiy manzumalari, millat kelajagiga kuyunib, uning farzandlarini ilm-ma'rifatga da'vat etgan she'rlari o'z davrida katta mavqega ega bo'lgan.

Kamiy ijodi o'zbek mumtoz adabiyoti an'analarini davom ettirgan holda, nozik lirizm, samimiy tuyg'ular va chuqur badiiy tasvirlar bilan ajralib turadi. Shoir o'z asarlarida inson qalbining eng nozik kechinmalarini, ayniqsa, ishqiy iztiroblar va ruhiy izlanishlarni nihoyatda ta'sirchan ifoda etadi.

Kamiy she'riyatida yor timsoli markaziy o'rin egallab, u go'zallikning mukammal namunasi sifatida tasvirlanadi. Shoir yor husnini gul, oy, quyosh, sumbul kabi ramzlar orqali tasvirlab, an'anaviy badiiy obrazlarni o'ziga xos ohang bilan boyitadi. Shu bilan birga, oshiq obrazida beqarorlik, hayrat, shaydo holat kabi ruhiy kechinmalar chuqur aks ettiriladi. Bu esa uning lirikasiga samimiyat va ichki dramatism bag'ishlaydi.

Kamiy badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanadi. Uning she'rlarida tashbeh, isti'ora, mubolag'a, tanosub kabi vositalar uyg'unlashib, tasvirning jonliligini oshiradi. Ayniqsa, qisqa

baytlar orqali keng ma'no ifodalash, sodda so'zlar zamiriga chuqur mazmun joylash uning uslubiga xos muhim xususiyatdir.

Ta'kidlash joizki, Kamiy she'rlarida charxning "ravishi kaj" (qing'ir yo'l)ligidan to zolim podshohning zulmigacha, ochlik yillarining "suubatu alami" (qiyinchilik alami)dan Fevral burjua inqilobining "sururi" gacha, Oktyabrning "ranj-u zulmi"dan boshlab Turkiston Muxtoriyatini qonga botirgan bolsheviklarning "fe'li bad"i (yomon ishlari)gacha o'z ifodasini topgan.¹

Kamiy ijodiyotining asosiy qismini ishqiy lirika tashkil qiladi. Xo'sh, shoir lug'atida ishq nima? Har bir shoir, nafaqat shoir har bir inson sevgini o'zi ta'rifi bilan tasvirlaydi. Oshiqnafas shoirimizning ham o'zi yaratgan, o'zi ishonadigan sevgiga ta'rifi mavjud. Buni biz:

Ishqdir olamda bir rohatfizoy komil asar,
 Mabdayi ayni sirishku mazhari ohi sharar,

- misralaridan anglab olgandek bo'lamiz. Uning nazdida ishq barchani hayratga soluvchi bir «komil asar». Ko'z yoshining manbai ham u, o'tli ohning mazhari ham u. Aynan mana shu yerda azaliy va abadiy ishqning tabiati ochilganday. Shunday ishq egasi bo'lmagan inson - inson emas. Shuning uchun ham Kamiy:

Dilekim, onda yo'qdur otashi ishq
 Ki, andin sham' ila parvona yaxshi,-

deydi. Tabiiy, ishq har bir oshiq qalbida bir bor yangilanadi. Unda yangicha kechinmalar uyg'otadi, ohorli tuyg'ular tug'diradi. Bunga o'sha oshiqning ma'shuqasi, uning fe'l-atvori, o'ziga xosliklari sabab bo'ladi. Kamiyning ham she'riyatda o'z ishqiy olami va o'z ma'shuqasi bor. Bu yor ham o'ziga xos suvratu siyratga ega. Bu yorning ruxsori olamni yoritadi. Hatto «ul zeb bul mohi tobonlarda yo'q». Bu husn shunday tarovatga egaki, undan o'zi mast qilish xususiyatiga ega bo'lgan sharob mast emish: «Mast ermish sharob husningdin». Uning jamoliga bir marta Oy bilan Quyosh qarshi kelgan edi, ko'ring oqibatini: «Birin ruxsori dog' o'ldi, birin sorg'ordi siymosi».

- Azizi Misri ²xo'besan, nazokat izzu johingdur³,
 Ko'ngul bir qatra qon birlan murassa' ⁴taxtgohingdur.⁵[

Ey Misr azizi (yor)! Sen nihoyatda go'zal, latofatli va yuksak martabaga egasan. Ko'nglim esa bir tomchi qon bilan bezatilgan go'yo bir taxt kabi — ya'ni u butunlay sening muhabbating bilan ziynatlangan. Bu misra orqali shoirning mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu baytda shoir talmeh she'riy sa'natidan mohirona foydalangan.

- Nigohi chashm ila, ey ko'zlarim, dodingga gar yetmas,
 Ayog'in ostig'a tifli sirishking ⁶tashla, shohingdur.

Ey ko'zlarim! Agar nigohing bilan uning dardiga yetib bormasang, ko'z yoshlaringni go'yo bir go'dakning ko'z yoshi kabi uning oyog'i ostiga tashla — chunki u sening shohingdir. Shoir

¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/karimbek-kamiy-1865-1922>

² Azizi Misri — nihoyatda aziz, go'zal yor (Misr go'zalligiga ishora)

³ Izzu joh — ulug'lik, martaba

⁴ Murassa' — bezatilgan, ziynatlangan

⁵ Taxtgoh — taxt, hukmronlik o'rni

⁶ Tifli sirishk — ko'z yoshi (go'dakdek pok yosh)

bu baytida ham o'z uslubini yana bir bor go'zal ko'rsatgan. Bu g'azalida shoir fors-tojik va turkiy so'zlardan foydalangan. Bayt shu so'zlar orqali yor tasviri yanada jonli chiqqan .

- Soching, ya'ni sipohi ⁷husn sardori — kamandi⁸ jon,
Ko'ngul ma'murasin⁹ g'oratgari chashmi siyohingdur.

Sening sochlaring husn lashkarining sarkardasi bo'lib, jonni tutib qoluvchi arqondekdir. Qora ko'zlaring esa ko'ngil mamlakatini talon-taroj qiluvchi zabardast kuchdir. Shoir yorning sochlarini chiroy lashkarining sardoriga o'xshatadi va bu sochlar men o'z tuzog'iga tortgan deb ataydi. Yorning ko'zlarining ham ta'rifi o'zgacha tasvirlangan. Yorning ko'zlarida shunday yashirin kuch borki u mening ko'ngil qasrimni buzishga qodir deb mubolag'a qiladi.

- Latofat osmonining hiloli vusmalik qoshing,
Sabohat ¹⁰burjining badri muniri ¹¹ro'yi mohingdur.

Sening qoshing latofat osmonidagi hilolga o'xshaydi, yuzing esa go'zallik burjining to'lin oyidek nur sochadi. Har bir baytda yorning tasviri oshiqona va g'ozal tarzda tasvirlangan. U suyuklisining qoshini ko'kdagi yangi chiqqan oyga o'xshatsa , yuzini to'lin oyga mohirona qiyoslaydi. Birgina oyning ikki xil ko'rinishini ham bunday go'zal va ustalik bilan qo'llanishi favqulodda iste'dodning mevasidir.

- Agar hijron ¹²yukin chekmoqni da'vo aylasang, ey dil,
Anga ikki bukilig'on qomating odil guvohingdur.

Ey dil! Agar sen hijron yukini ko'tara olaman deb da'vo qilsang, bukilgan qomating (azobdan egilgan holing) bunga adolatli guvoh bo'la oladi. Go'yo shoir bu misralari orqali inson ba'zan o'zini kuchli ko'rsatmoqchi bo'ladi, lekin uning tashqi ko'rinishi va ichki holati asl haqiqatni ochib beradi. Hijron azobi shunchalik og'irki, uni yashirib bo'lmaydi — u insonning qaddi-qomatida, kayfiyatida, butun borlig'ida namoyon bo'ladi demoqchidek.

- Muanbar xattu ¹³zebo qad nigori nozanining'a.
Na nisbat, ey chaman, ra'nolig'ing ¹⁴cho'bu giyohingdur.

Ey chaman, mening nozanin yorimning "muanbar xatti" va chiroyli qomatini o'zinnga ne nisbat qilursanki, he hadding bor... Bu yerda oshiq o'z sevgilisini haddan tashqari go'zal deb biladi va uni tabiatdan ham ustun qo'yadi. Chaman odatda go'zallik ramzi hisoblanadi, lekin shoir nazarida u ham yorning oldida ojiz. Yor shoir uchun mukammaldir.

- Kamiy vahm etmag'il bedardlarning ta'nasidinkim,
Xarobot ¹⁵ahli pirin¹⁶ dargahi farrux panohingdur¹⁷.

Ey Kamiy! Bedard kishilarning malomatidan qo'rqma, chunki xarobot ahli pirining dargohi sen uchun baxtli panohdir. Shoir (Kamiy) o'ziga murojaat qilib aytadi: ey Kamiy, qalbi

⁷ Sipoh — lashkar

⁸ Kamand — arqon, tutqich (ishq tuzog'i ma'nosida)

⁹ Ma'mura — obod maskan (bu yerda — ko'ngil)

¹⁰ Sabohat — go'zallik, husn

¹¹ Badri munir — to'lin va nurli oy

¹² Hijron — ayriliq

¹³ Muanbar xat — xushbo'y tuk (lab usti tuklari)

¹⁴ Ra'no — go'zal, chiroyli

¹⁵ Xarobot — mayxona, tasavvufda dunyodan kechish joyi

¹⁶ Pir — ruhiy ustoz

¹⁷ Panoh — boshpana, himoya

sovuq, muhabbat va dardni tushunmaydigan odamlarning gap-so'zlari, tanqid va malomatlaridan qo'rqma. Ular seni tushunmaydi, shuning uchun ularning aytganlari ahamiyatli emas. Go'yo shoir bu baytlar orqali o'ziga o'zi dalda berishga urinayotgandek tuyuladi.

Kamiyning mazkur g'azali — ishqiy iztirob, go'zallik tasviri va tasavvufiy tafakkur uyg'unlashgan yuksak badiiy namunadir; unda yor husni ilohiy nur darajasiga ko'tarilib, oshiq qalbi esa muhabbat yo'lida iztirob va sadoqat timsoli sifatida teran va ta'sirchan ifoda etilgan. Kamiy ijodiga xos murakkab tasviriylik, tasavvufiy ishoralar va nozik tuyg'ular ushbu g'azaliga ham o'zgacha nafislik bergan.

Xulosa qilib aytganda, Kamiy ijodi o'zbek mumtoz she'riyatining nafis va ta'sirchan namunalaridan biri bo'lib, unda inson qalbi, go'zallik va ishq falsafasi yuksak badiiy darajada aks etgan. Uning asarlari bugungi kunda ham o'z estetik va ma'naviy ahamiyatini saqlab qolmoq.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mallayev Natan. "O'zbek adabiyoti tarixi". – Toshkent: O'qituvchi, 1965.
2. Mallayev Natan. "O'zbek adabiyoti tarixi (qayta ishlangan nashr)". – Toshkent: O'qituvchi, 1976.
3. Qosimov Begali (va boshq.). "O'zbek adabiyoti tarixi". – Toshkent: O'qituvchi, 1999–2004.
4. Qosimov Begali. "XIX asr o'zbek adabiyoti". – Toshkent: O'qituvchi, 1999
5. O'zbek adabiyoti tarixi 1-jild (1970-yillar nashri, Toshkent)
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/karimbek-kamiy-1865-1922>
7. https://tsuull.uz/sites/default/files/jadid_estetikasining_shakllanishi_anjuman_2023.pdf